



AQSHDA KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYAT TAJRIBASI: VENCHUR KAPITAL VA STARTAP EKOTIZIMI.

Xujamqulov Eldor Faxriddin o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti

Khujamkulov Eldor is the son of Fakhriddin

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Master's student of economics

Email: eldorxujamqulov88@gmail.com

phone: +998919000925

ORCID: 0009-0005-2840-9531


Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish tajribasi tahlil qilinadi. Xususan, AQShda shakllangan startap ekotizimi hamda venchur kapital bozorining innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi roli o'rganiladi. Tadqiqot natijasida kichik biznesda innovatsiyalarni rivojlantirishda venchur kapital investitsiyalari, ilmiy-tadqiqot xarajatlari va davlat grant dasturlarining muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi.


Kalit so'zlar: Innovatsiya, kichik biznes, venchur kapital, startap ekotizimi, ilmiy-tadqiqot xarajatlari (R&D), innovatsion faoliyat, texnologik rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the experience of developed countries in promoting innovative activities of small businesses. In particular, it examines the startup ecosystem formed in the United States and the role of the venture capital market in financing innovative projects. The research findings indicate that venture capital investments, R&D expenditures, and government grant programs play an important role in fostering innovation in small businesses.

Keywords: Innovation, small business, venture capital, startup ecosystem, R&D expenditures, innovative activity, technological development.

Аннотация: В данной статье анализируется опыт развитых стран по развитию инновационной деятельности субъектов малого бизнеса. В частности, рассматриваются стартап-экосистема США и роль рынка венчурного капитала в финансировании инновационных проектов. Результаты исследования показывают, что венчурные инвестиции, расходы на научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы (НИОКР), а также государственные грантовые программы играют важную роль в развитии инноваций в малом бизнесе.





Ключевые слова: Инновации, малый бизнес, венчурный капитал, стартап-экосистема, расходы на НИОКР, инновационная деятельность, технологическое развитие.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar iqtisodiy o‘shishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulotlar yaratish va bozor raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning innovatsion faoliyati davlat siyosati, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi hamda moliyaviy mexanizmlar orqali faol qo‘llab-quvvatlanadi. Bu borada AQSh tajribasi alohida ahamiyatga ega. Mamlakatda innovatsion startup ekotizimi rivojlangan bo‘lib, venchur kapital bozori yuqori texnologiyali loyihalarni moliyalashtirishning muhim manbasi hisoblanadi. Venchur kapital orqali kichik innovatsion korxonalar yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqotda rivojlangan mamlakatlarda, xususan, AQShda kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarini o‘rganish hamda venchur kapital bozorining startup ekotizimiga ta‘sirini tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlilning bir qator ilmiy usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Venchur kapital bozori. AQSh innovatsion modeli asosan venchur kapitalga tayangan holda ishlaydi. 2023 yilda AQShda venchur kapital investitsiyalari hajmi taxminan 170 milliard dollarni tashkil etdi, 15 mingdan ortiq investitsiya bitimlari amalga oshirildi, global venchur kapital oqimining qariyb 50 foiz AQSh hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar AQSh innovatsion startup ekotizimining kapital bilan ta‘minlanish darajasi yuqori ekanini ko‘rsatadi. R&D (ilmiy-tadqiqot) xarajatlari. AQSh ilmiy-tadqiqot xarajatlari bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinda hisoblanadi. 2023 yilda umumiy R&D xarajatlari 886 milliard dollarni tashkil etgan, bu YAIMning taxminan 3,4 foiz qismiga teng. Kichik bizneslar innovatsion grantlar orqali faol qo‘llab-quvvatlanadi.

AQShda kichik biznes innovatsion rivojlanishning markaziy elementi bo‘lib, texnologik startaplar va ilmiy-tadqiqot faoliyati keng rivojlangan. Mamlakatda kichik biznes subyektlari umumiy korxonalar sonining qariyb 99 foizini tashkil etadi hamda xususiy sektordagi yangi ish o‘rinlarining yarmidan ortig‘i aynan shu sektor tomonidan yaratiladi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda venchur kapital bozori muhim o‘rin tutadi. Innovatsion loyihalarga yo‘naltirilgan xususiy investitsiyalar hajmi yiliga yuzlab milliard dollarni tashkil etadi. Bu esa yuqori riskli, ammo yuqori daromadli texnologik loyihalarni tezkor rivojlantirish imkonini beradi. AQShda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus davlat dasturlari mavjud bo‘lib, ular kichik biznes subyektlariga grant va kontraktlar ajratadi. Bunday mexanizm ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonini tezlashtiradi va yangi mahsulotlarni bozorga chiqarish muddatini qisqartiradi.





1-jadval

AQShda kichik ishlab chiqaruvchi korxonalarda innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari

No	Ko'rsatkich nomi	Qiymati	Izoh
1	Innovatsion faol ishlab chiqaruvchi kichik firmalar ulushi	27-32 %	Oxirgi 3 yilda yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan mahsulot joriy qilgan korxonalar
2	Kichik firmalar tomonidan yaratilgan patentlar ulushi	30 %	Yillik patent arizalarining taxminan uchdan biri
3	SBIR grant olgan ishlab chiqaruvchi kichik firmalar soni	4 000 dan ortiq	Federal innovatsion grant dasturlari doirasida
4	R&D xarajatlarining tushumga nisbati (kichik ishlab chiqaruvchilar)	3-5 %	Yuqori texnologiyali segmentlarda 8–10 % gacha
5	Ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini (robototexnika, AI) joriy etgan kichik firmalar	18-22 %	Raqamlashtirish va avtomatlashtirish ko'rsatkichlari


Manba: U.S. Small Business Administration, National Science Foundation va Organisation for Economic Co-operation and Development ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


XULOSA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQShda kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanishida venchur kapital bozori, ilmiy-tadqiqot xarajatlari va davlat grant dasturlari muhim o'rin tutadi. Ushbu mexanizmlar innovatsion startaplarning paydo bo'lishi, yangi texnologiyalarni tijoratlashtirish va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish hamda uning samarali elementlarini milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Joseph Shumpeter "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" (The Theory of Economic Development) - 1934.





2. Paul Gompers, Josh Lerner “Venchur kapital sikli” (The Venture Capital Cycle)-2004.
3. OECD(Organisation for Economic Co-operation and Development) “Innovatsiya va tadbirkorlik bo‘yicha tahliliy hisobotlar” (Innovation and Entrepreneurship Reports) - 2010.
4. World Bank “Innovatsion siyosat va kichik biznes rivojlanishi” (Innovation Policy and Small Business Development) - 2017.
5. U.S. Small Business Administration SBIR/STTR dasturlari bo‘yicha rasmiy hisobotlar (Small Business Innovation Research / Small Business Technology Transfer Program Reports) - 2020.

